XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Ishtixon ko‘chasi, 4-uy +998 66 629 1521

2025-yil 20-fevral VII-5-29-7-95-K/25 Ishtixon tumani

Xalq deputatlari Ishtixon tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Ishtixon tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-114-217-7-95-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 148-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byujeti to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-1012-sonli Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-sonli Farmoniga, tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining 2025-yil 27-yanvardagi 17-sonli bildirgisiga, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosarining 2025-yil 23-yanvardagi 01-38-44-sonli xulosasiga, tuman Adliya bo‘limining 2025-yil 17-fevraldagi 5/2-25-sonli xulosasiga asosan Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, 5-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Ishtixon tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-114-217-7-95-K/23-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagidalar:

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Ishtixon tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-114-217-7-95-K/23-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq *(daromadning yangi tahriri qo‘yiladi)*;

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Ishtixon tumanining 2024 yilgi mahalliy byudjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin *(xarajatning yangi tahriri qo‘yiladi)*;

3. Ishtixon tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin. *(o‘zgarishlar, yangi ilova qo‘shiladi)*;

4. Ishtixon tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

Shuningdek, mahalliy byudjetlar rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Abdug‘aniyev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



KIYAMOV NURALI KUVANDIKOVICH

Xalq deputatlari Ishtixon tumani
Kengashining
2025-yil 20-fevraldagi
VII-5-29-7-95-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Ishtixon tuman mahalliy byudjeti daromadlar pragnozi ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Jami:		**119 672 276**
1.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	33 360 000
2.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	4 103 400
3.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 637 000
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	26 423 500
5.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 649 000
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 576 972
7.	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	311 000
8.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 990 300
9.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	13 633 000
10.	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	7 897 000
11.	Aylanmadan olinadigan soliq	8 650 000
12.	Yig‘imlar	1 382 000
13.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	59 104

Xalq deputatlari Ishtixon tumani
Kengashining
2025-yil 20-fevraldagi
VII-5-29-7-95-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Ishtixon tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**305 151 023**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	77 562 999
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	113 437 093
3.	Madaniyat bo‘limi	5 116 358
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	14 671 600
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 734 402
6.	Irrigatsiya bo‘limi	4 962 224
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 298 654
8.	Kambag‘alikkni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 278 442
9.	Soliq inspeksiyasi	5 606 273
10.	Tuman hokimligi	74 482 979

Xalq deputatlari Ishtixon tumani
Kengashining
2025-yil 20-fevraldagi
VII-5-29-7-95-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Ishtixon tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
Xarajatlar miqdori, Jami		**4 066 846**	**- 4 066 846**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	277 526	0
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	0	-3 485 653
3.	Madaniyat bo‘limi	0	-374 487
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	0	-206 706
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 202 031	0
6.	Irrigatsiya bo‘limi	0	0
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	339 344	0
8.	Kambag‘alikkni qisqartirish va bandlik bo‘limi	558 549	0
9.	Soliq inspeksiyasi	26 875	0
10.	Tuman hokimligi	1 662 521	0